

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

MATQULOV XOSILBEK MAVLONOVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “KURASH” KONSEPTINING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

UO‘K: 811.111'373:008
811.512.133'373:008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Matqulov Xosilbek Mavlonovich

Ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konseptining lingvokulturologik tadqiqi 3

Matqulov Xosilbek Mavlonovich

Linguocultural study of the concept “kurash” (fight) in English and Uzbek 25

Маткулов Хосилбек Мавлонович

Лингвокультурологическое исследование концепта «кураш» (борьба) в
английском и узбекском языках 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

MATQULOV XOSILBEK MAVLONOVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “KURASH” KONSEPTINING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2957 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) tillarida) Andijon davlat chet tillari instituti veb-sahifasining (www.adhti.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saidxonov Ma’murjon Muhammedovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Tojiboyev Iloxomjon Usmonovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy, Tel: (74) 223-42-76, faks: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy, Tel: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

S.O.Solijonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida olam – inson – til munosabatlari, xususan, ichki va tashqi olam konseptual manzarasining lisoniy tasviriy vositalar orqali obyektivlashuvi, til va nutq birliklarining konseptual-semantik, lingvokognitiv, lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlarini fanlararo yondashuv asosida chogʻishtirma planda oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar salmogʻi sezilarli darajada ortib bormoqda. Antropotsentrik paradigma asosida olib borilayotgan bunday tadqiqotlar til va tafakkur oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni, olamning konseptual tizimi bilan til sistemasining oʻzaro aloqalarini, insonning olamni bilish, idrok etish, bilimlarni kodlashtirish va uzatishdagi rolini, konseptlarni verballashtiruvchi vositalarning milliy-madaniy va kommunikativ-pragmatik aspektlarini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo xalqlari va millatlarining konseptosferalarida oʻz ifodasini topgan, umuminsoniy va milliy xususiyatga ega boʻlgan “kurash” konsepti oʻzbek va ingliz tillarida milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tajribaning lisoniy shakllanishini ifoda etadi. Ushbu konseptning ingliz va oʻzbek tillaridagi verballashuvi, uni ifodalovchi birliklarning madaniy jihatlari, konseptual maydonni shakllantiruvchi yadro va periferiya birliklari oʻrtasidagi sistem munosabatlar, shuningdek, ularning struktur-semantik, funksional-stilistik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari hamda tarjima tilida qayta yaratish muammolari hali toʻliq qiyosiy planda ilmiy asosda tadqiq etilmaganligi ham mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi islohotlar bosqichida fan, taʼlim va tarbiyani shaxsga xos axloqiy, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish pirovard maqsadki, bu “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida ham maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish boʻyicha islohotlarning ¹ ustuvor strategik yoʻnalish sifatida belgilab qoʻyilganligida yaqqol koʻrinadi. Zero, “bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada, avvalo, oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir” ². Shu maʼnoda oʻzbek tilshunosligida ham inson tafakkuri va til ilmi kesishmasida – kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan keng koʻlamli ilmiy izlanishlar olib borishga yoʻl ochildi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5847-son Farmoni ³, 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida. 11.09.2023-yil. PF-158-son. <https://lex.uz/docs/-6600413>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. <http://lex.uz/docs/4561730>.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5847-son Farmoni.

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son⁴, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son⁵, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-son⁶, 2020-yil 4-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-son⁷, 2017-yil 2-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-son Qarorlari⁸ hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratini yanada oshiradi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda turli millat va elatlar konseptosferalarini tizimli talqin qilish muammosi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning markaziy obyektiga aylangan. Xorijiy tilshunos olimlar – S.G.Vorkachyov, Z.D.Popova, A.P.Babushkin, I.A.Sternin, G.G.Slishkin, D.S.Lixachyov, N.M.Kravsova, Ye.A.Menzairova, N.N.Boldirev, V.I.Karasik kabi tadqiqotchilar tomonidan konseptlarning nazariy asoslari va turli tillardagi milliy-madaniy tafovutlari ilmiy asosda tadqiq qilingan. Ularning ishlari til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, konseptlarning lisoniy va madaniy voqelanishini chuqurroq anglashga xizmat qilgan⁹.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son Qarori.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-son qarori.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktyabrdagi “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-son Qarori. .

⁹ Воркачев С.Г. Концепт “счастья” в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа: Монография. – Краснодар: Изд-во Кубан. гос. техн. ун-та, 2002. – С. 142; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж: Воронеж. ун-т, 2000. – С. 30; Кравцова Н.М. Концепт «человек телесный»: когнитивное моделирование и переносы (на материале сопоставительного анализа древнерусского и древнеанглийского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2008. – С. 30; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/cўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – С. 28; Болдырев Н.Н. Концептуальная основа языка // Когнитивные исследования языка. Вып. IV. Концептуализация мира в языке: коллектив. моногр. – М.: Ин-т языкознания РАН; – Тамбов: ТГУ им. Г.Р.Державина, 2009. – С. 460; Карасик В.И. Определение и типология концептов // Этнокультурная концептология: Сб. науч. тр. / Калм. гос. ун-т. – Вып. 1. – Элиста: Изд-во Калм. ун-та, 2006. – С. 332.

Jahon tilshunosligida zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff¹⁰ va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bogʻlanadi.

Rus tilshunosligida ham konseptual tahlilga oid tadqiqotlar keng qamrovda olib borilgan. Jumladan, S.I.Magomedova¹¹ tomonidan “ko‘z”, “yurak”, “bosh” konseptlarining avar va arab tillari materiallari asosida semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida ham kognitiv yondashuv va lingvokonseptologiyaning nazariy, xususiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasi M.R.Galiyeva, A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, M.D.Djusupov, Sh.Safarov, O‘.Q.Yusupov, G‘.Xoshimov, J.Yakubov, M.A.Abduvaliyev, G.Ergasheva, Z.A.Kasimova, D.Bahronova kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular konseptual tahlil metodikasini ishlab chiqish va milliy tafakkurdagi konseptlarning lisoniy ifodasini ochib berishga katta hissa qo‘shganlar¹². Shuningdek, M.Umarxodjayev¹³, A.Mamatov¹⁴, Z.Xolmanova¹⁵, X.Qodirova¹⁶, D.Rustamova¹⁷, N.G‘aybullayeva¹⁸, Sh.Gulyamova¹⁹, Sh.Shamsiyeva²⁰ hamda N.Jo‘rayevalarning²¹ tadqiqotlari

¹⁰ Benjamin D. Gestural sense art, neuroscience and linguistic embodiment // Western Sydney University Thesis Collection, 2009. – P. 65-68.

¹¹ Магомедова С.И. Соматизмы «глаз», «сердце», «голова» в объективации картины мира (на материале аварского и арабского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2009. – Б. 24.

¹² Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент: Шарқ, 2015. – Б. 176; Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста//Хорижий филология. – №3. – Самарқанд, 2011. – Б. 26-33; Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: ВГУ, 1996. – С. 38; Бахронова Д.К. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера // Хорижий филология, 2019. – №3. – Б. 62-68; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 160; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 25-46; Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 283; Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар. Филология масалалари. – Тошкент, 2011; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике. // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010. – С. 74-78; Якубов Ж.А. Концептнинг семантик қирралари. – “Хорижий тилларни ўқитишда замонавий ёндашувлар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2018 йил 11 апрель. 2 китоб. – Фарғона, 2018. – Б. 227-228. Abduvaliyev M.A. To‘siqsizlik konsepti nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz, o‘zbek va boshqa tillar misolida): Filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Andijon, 2023. – 253 b.

¹³ Умарходжаев М.И. Основы фразеологии: Автореф. ... д-ра филол. наук. – Москва, 1981.

¹⁴ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 56.

¹⁵ Холманова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 22.

¹⁶ Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 23.

¹⁷ Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD). ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б. 50.

¹⁸ Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): Филол. фан. б-ча фалс. д-ри дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – Б. 62.

¹⁹ Гулямова Ш.Қ. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б-ча фалс. д-и (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. – Б. 95-143.

²⁰ Shamsiyeva Sh. Xitoy va o‘zbek tillaridagi maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi: filol. fan. b-cha fals. d-ri diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 53.

²¹ Jo‘rayeva N. Fransuz va o‘zbek tillari evfemizm va disfemizmlarining lingvopragmatik xususiyatlari: filol. fan. b-cha fals. d-ri diss. avtoref. – Andijon, 2023. – B. 56.

e'tirofga molik. O'zbek adabiyotida, ayniqsa, A.Qodiriy²², A.Cho'lpon²³, O'.Hoshimov²⁴, Oybek²⁵, S.Ahmad²⁶, Mirmuhsin²⁷ singari yozuvchilarning asarlarida "kurash" obrazlari "milliy g'urur, vatanparvarlik va ozodlik g'oyalari" bilan uyg'unlashgan. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda ingliz va o'zbek tillarida "kurash" konsepti verbalizatorlarining struktur-semantik, lingvokulturologik va pragmatik tadqiqi amalga oshirilgan.

Ingliz va o'zbek tillarida "kurash" konseptining verballashuviga oid leksik-semantik xususiyatlar ochib berilgan; "Kurash" konseptini ifodalovchi lisoniy vositalarning nomenklaturasi, ularning maydoniy tuzilishi va tizimli o'zaro munosabatlari qiyosiy planda chuqur o'rganilgan; Ingliz va o'zbek tillarida "kurash" konseptining lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari badiiy matnlar va lug'aviy manbalar asosida kontekstual tahlil qilinib, xalq tafakkuridagi madaniy qadriyatlar, ijtimoiy stereotiplar va kommunikativ intonatsiyalar keng yoritilgan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Til va madaniyat integratsiyasi asosida xorijiy tillar ta'limining barqaror rivojlanish modeli: lingvistik, filologik, linvodidaktik va raqamli yondashuvlar" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida "kurash" konseptini voqelantiruvchi birliklarning lingvokognitiv, lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda lingvokognitiv tahlil, konsept va u bilan bog'liq tushunchalarga doir nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida "kurash" konseptini ifodalovchi lisoniy vositalarning konseptual maydonini aniqlash, uning yadro va periferiya qismlarini belgilash;

ingliz va o'zbek tillarida "kurash" konsepti asosida shakllangan birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, ularning milliy tafakkurdagi aksini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida "kurash" konseptini obyektivlashtiruvchi birliklarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning kommunikativ va illokutsion xususiyatlarini yoritish;

"kurash" konseptini ifodalovchi birliklarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarini o'rganish, ekvivalentlik va madaniy moslashuv masalalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz adabiyoti vakillari ijodiga mansub badiiy asarlarda hamda har ikki tildagi izohli lug'atlarda uchraydigan "kurash" konseptini ifodalovchi lisoniy birliklar tanlab olingan. Ushbu manbalardagi

²² Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Фафур Фулом, 1983. – Б. 217.

²³ Чўлпон А. Кеча ва кундуз: роман. – Тошкент: Фафур Фулом, 1990. – Б. 134.

²⁴ Hoshimov O'. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 174.

²⁵ Ойбек. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 212.

²⁶ Саид Аҳмад. Уфқ: роман. – Тошкент: Ёзувчи, 1974. – Б. 112.

²⁷ Мирмуҳсин. Хўжанд қалъаси. (Темур Малик) тарихий роман. – Тошкент: Фафур Фулом, 1991. – Б. 344.

“kurash” konseptini obyektivlashtiruvchi vositalarning tahlili tadqiqotning asosiy obyektiv bazasini tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konsepti doirasida shakllangan nominativ maydonning yadro va periferiya qismlariga mansub birliklarning kognitiv-semantik, struktur-semantik, funksional-stilistik, lingvomadaniy va lingvopragmatik jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-chog‘ishtirma, maydoniy yondashuv, kognitiv modellashtirish, transformatsiya, komponent, distributiv tahlil hamda statistik tahlil kabi metodlar kompleks tarzda qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” semantikasiga ega birliklarning madaniy konnotatsiyalari, kuchli pragmatik yuklamalari, ularning kontekstual va perlokutiv ta’sir samaradorligi konstativ, kommunikativ maqsadlar bilan bog‘liq intensiv pragmatik ottenkalarga egaligi dalillangan;

“kurash” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi idiomatik va kontekstual tafovutlarining izomorf va kognitiv madaniy tafovutlarining allomorf lingvomadaniy xususiyatlari belgilab berilib, konseptning lisoniy va madaniy obyektivlashuvi ochiqqlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konseptining semantik maydonini tashkil etuvchi yadro va periferiya birliklari hamda ular o‘rtasida shakllangan sistem munosabatlar aniqlanib, ushbu konseptning kognitiv tuzilishi ochib berilgan;

“kurash” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklar va paremiyalarning ingliz hamda o‘zbek xalqlari milliy ongida namoyon bo‘lishi, ularning umuminsoniy, milliy, ijobiy, salbiy va neytral qatlamlar orqali xalqning intellektual merosi, ma’naviy qadriyatlari va axloqiy stereotiplari ilmiy asosda dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chog‘ishtirilayotgan tillarda “kurash” semantikasini ifodalovchi til birliklarining sintagmatik plandagi valentlik imkoniyatlari o‘rganildi va ingliz hamda o‘zbek tillarida “kurash” konseptini ifodalovchi birliklarning morfologik tarkibiga mos keluvchi tayanch va transformatsion modellar ishlab chiqildi;

ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konseptining lisoniy manzarasini tashkil etuvchi birliklarning qiyosiy o‘rganilishi natijasida tillararo izomorfik (o‘xshash) hamda allomorfik (farqli) jihatlar aniqlandi va ilmiy asosda tahlil qilindi;

ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konsepti doirasida shakllangan lisoniy birliklarning markaziy (yadro) va periferik ma’nolarni ifodalovchi qatlamlari aniqlanib, ularning maydoniy tabiati tasvirlab berildi;

“kurash” konsepti tarkibida faol verbalizatorlik vazifasini bajarayotgan til birliklarining lingvomadaniy, pragmatik, funksional-stilistik va semantik jihatlari chuqur tahlil qilinib, ularning madaniy va kommunikativ qamrovi ilmiy asosda ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi bir qator omillar bilan ta’minlangan.

Dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy xulosalar mustahkam dalillangan bo‘lib, barcha nazariy va amaliy materiallar ishonchli adabiyotlar va manbalardan olingan. Tadqiqotda tahlil qilingan namunalar va ularning izohlari faktik hamda analitik

lisoniy manbalarga asoslangan holda tanlab olingan, natijalar zamonaviy lingvistik tadqiqot usullari (qiyosiy-chogʻishtirma tahlil, kognitiv modellashtirish, komponent tahlil va boshqalar) asosida erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning asosiy tahlillari respublika va xalqaro miqyosda oʻtkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamaga qoʻyilgan, ilmiy jamoatchilik tomonidan ma'qullangan. Tadqiqot natijalari asosida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) roʻyxatiga kiritilgan milliy va xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa quyidagilar bilan belgilanadi: dissertatsiyada olingan xulosalar, tahlillar qiyosiy tipologiya, leksikologiya, lingvomadaniyatshunoslik, stilistika, tarjima nazariyasi kabi nazariy fanlar kurslari uchun ma'ruza matnlari, seminar mashgʻulotlari materiallari sifatida foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida inglizcha-oʻzbekcha va oʻzbekcha-inglizcha lugʻatlar tuzish boʻyicha leksikografik amaliyotda, til amaliyoti darslarida oʻquv qoʻllanma sifatida samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

ingliz va oʻzbek tillarida “kurash” konseptining semantik maydonini tashkil etuvchi yadro va periferiya birliklari hamda ular oʻrtasida shakllangan sistem munosabatlar, shuningdek, ingliz va oʻzbek tillarida ushbu konseptning lingvomadaniy xususiyatlariga oid ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Jahon adabiyoti” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 05-maydagi 05-09-601-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu eshittirish uchun tayyorlangan materiallarning ilmiy ahamiyati ortib, mazmunan mukammallashgan;

“kurash” konseptining umuminsoniy qadriyatlarga mansubligi asosida ingliz va oʻzbek tillarida uning izomorf (oʻxshash) va allomorf (farqli) lingvomadaniy xususiyatlari toʻgʻrisidagi materiallaridan Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258-raqamli “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 24-iyuldagi 01/4-3273-son ma’lumotnomasi). Natijada, “kurash” konseptining semantik maydonini tashkil etuvchi yadro va periferiya birliklari aniqlanib, ularning sistem munosabatlari ochib berilgan;

“kurash” konsepti bilan bogʻliq frazeologik birliklar va paremiyalarning ingliz hamda oʻzbek xalqlari milliy ongida namoyon boʻlishi, ularning umuminsoniy, milliy, ijobiy, salbiy va neytral qatlamlar orqali xalqning intellektual merosi, ma’naviy qadriyatlari va axloqiy stereotiplarini ifodalashi xususidagi xulosalardan Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258-raqamli “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 1-maydagi 01/4-1813-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan

qator taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo‘llanmalarni yaratishga, ta’lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlar samaradorligiga erishilgan;

“kurash” semantikasiga ega birliklarning madaniy konnotatsiyalari va kuchli pragmatik yuklamalari aniqlanib, ularning kontekstual va perlokutiv ta’sir samaradorligi konstativ kommunikativ maqsadlar (maslahat, buyruq, ogohlantirish, kesatq) bilan bog‘liq xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida bajarilgan “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion grant loyihasini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 1-maydagi 01/4-1814-son ma’lumotnomasi). Natijada axborot-qidiruv tizimlari uchun mo‘ljallangan o‘zbek tilining morfoleksikoni “kurash” konsepti bilan bog‘liq leksik va frazeologik birliklar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 1 ta monografiya, 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda, 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Har bir bob o‘z ichida tadqiqotning nazariy asoslari, tahlil jarayonlari va amaliy natijalarini tizimli ravishda bayon qiladi. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika, fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslikda konsept talqini va tasnifi”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob 3 fasldan iborat.

Bobning birinchi fasli **“Dunyo kognitiv tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari”** deb nomlanadi. Bunda jahon tilshunosligida kognitiv tilshunosligining nazariy va amaliy masalalariga doir dastlabki qarashlar, “konsept”, “tushuncha”, “ma’no” atamalarini masalalari va bu borada izlanish olib borgan jahon tilshunoslarining ilmiy-nazariy qarashlari sharhi va ularga munosabatlar bayon

etiladi.

Jahon tilshunosligida Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff²⁸ va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog‘lanadi. Kognitiv so‘zi inglizcha “cognize – bilmoq, anglamoq, tushumoq” demakdir. Kognitiv tilshunoslik “chegaradosh fan” bo‘lib, kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolongvistika, lingvistika kabi sohalar to‘qnashuvida vujudga keldi.

1975-yilda J.Lakoff va S.Tompsonning maqolasida “kognitiv grammatika” termini paydo bo‘ldi va 80-yillarda yevropaning an‘anaviy tilshunosligida kognitiv tilshunoslik qaror topdi. Rus tilshunosligiga esa kognitiv lingvistika V.I.Gerasimovning ilmiy maqolasi bilan kirib keldi²⁹. Rus tilshunosligining yana bir atoqli vakili E.S.Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: “Kognitologiya ko‘p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan tilshunoslik, o‘z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko‘zlaydi, lisoniy va bilim strukturalari o‘rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi”³⁰. O‘zbek tilshunosi Sh.S.Safarovning fikriga ko‘ra, “Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo‘llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibining inson miyasidagi in‘ikosi sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir”³¹. Bizningcha, yuqorida ta’kidlangan yondashuvlar kognitiv tilshunoslikni faqat nazariy konsepsiya emas, balki inson tafakkurining tildagi aksi sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi.

Professor A.Mamatov Kognitiv fan kognisiya bilan shug‘ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya’ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo‘lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi³². Bizning fikrimizga ko‘ra A.Mamatov ta’riflaganidek, til va tafakkur o‘rtasidagi kognitiv munosabatni ilmiy asosda tadqiq qilish nafaqat lingvistik birliklarning semantik strukturasini aniqlashga, balki inson ongi va madaniy xotirasida aks etgan konseptual qatlamlarni ochib berishga imkon beradi. Bu yondashuv orqali til hodisalari chuqur mental va madaniy ildizlarga ega ekanligi aniqlanadi hamda lingvistik tahlil doirasida inson bilimining strukturalashgan modeliga asoslanadi.

O‘zbek til ilmida kognitiv tilshunoslik kengroq o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar qator olimlar, xususan, A.Abduazizov, D.Ashurova, O‘.Q.Yusupov, Sh.Safarov, A.Mamatov, G‘.M.Xoshimov va J.Yoqubov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, izlanishlarda, asosan Sh.Safarov fikricha, “*konsept – bu*

²⁸ Benjamin D. “Gestural sense art, neuroscience and linguistic embodiment/. Western Sydney University Thesis Collection, 2009. – P. 65-68.

²⁹ Петров В.В. Герасимов В.И. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка / пер. с англ. Сост. и ред. 1988. – С. 241.

³⁰ Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистике и семантике термина “Когнитивный” // Вестник ВГУ. – Воронеж, 2001. – С. 90.

³¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91.

³² Маматов А. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? Тилшуносликнинг долзарб муаммолари: проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.

tushuncha, obraz va lisoniy mazmunning birligi bo‘lib, tafakkurdagi kategoriyalar asosini tashkil etadi³³; G‘.M.Hoshimov, O‘.Yusupov, J.Yakubov, D.Baxronovalar “Konsept” terminining “tushuncha” atamasidan asosiy farqi shundaki, “tushuncha” – bu biror obyekt haqida bilim va ma’lumotlar yig‘indisining ongda aks etishi bo‘lsa, “konsept” mental tuzilma bo‘lishi bilan birga ifodalanishidir³⁴.

Yuqoridagi tasniflarni e’tirof etgan holda biz ham kognitiv tilshunoslikda “konsept”, “tushuncha”, “ma’no” atamalarini birlashtirib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz, ular turli xil subyektlardir: konsept ma’nodan kengroq va tushunchaning o‘zi ma’no, shuningdek, konsept uchun ham. Ma’nolar dunyo haqidagi bilimimizning faqat ma’lum bir qismini beradi, bu bilimlarning asosiy yoki hatto bir qismi bizning ongimizda tushunchalar shaklida saqlanadi, ularning mazmuni yangi xususiyatlarni o‘z ichiga olishi mumkinligini takidlaydi.

Bobning ikkinchi fasli **“Kognitiv tilshunoslikda “konsept”, tushuncha va ma’no munosabatlari talqini”** deb nomlanib, ushbu faslda “konsept”, tushuncha va ma’no munosabatlari talqini borasida so‘z yuritiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida konsept tabiatini o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Mazkur termini tahlil qilishda turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu soha doirasida V.P.Neroznak, D.S.Lixachev, Yu.S.Stepanov, A.Vejbiskaya, A.P.Babushkin, N.D.Arutyunova, S.X.Lyapin, V.I.Karasiklarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

A.Vejbitskaya konseptni “ideal obyekt” deb atab, uni madaniyat orqali belgilangan, til yordamida fikrlash uchun ongga taqdim etilgan “haqiqat haqidagi” umumlashgan obraz sifatida izohlaydi³⁵. Ta’kidlash joizki, bu ta’rif konseptni nafaqat “semantik birlik, balki idrokiy-madaniy model” sifatida ko‘rishga imkon beradi, chunki inson haqiqatni til orqali ongida strukturaviy tarzda qayta ishlaydi.

Yu.S.Stepanov esa konseptni madaniyatdagi asosiy bilimlar modeli sifatida baholaydi va uni milliy tafakkurning yadroviiy elementi deb ko‘rsatadi³⁶. Nazarimizda, bu yondashuv konseptni til orqali jamiyat tajribasini kodlovchi birlik sifatida o‘rganishga turtki beradi va uni milliy identifikator sifatida ham qarashga asos yaratadi.

I.A.Sternin *“har bir konsept hissiy-shaklli yadroga ega bo‘lib, bu yadro ifoda etilayotgan ma’noga asosiy yo‘nalishni beradi”*³⁷. Shuning uchun ularni tahlil qilishda “asosiy dominantlar, periferik xususiyatlar va semantik o‘zgaruvchanlik mezonlar”ini aniqlash zarur bo‘ladi. Fikrimizga ko‘ra, konsept tahlilida semantik asosdan tashqari, madaniy, emotsional, psixologik omillar ham inobatga olinishi lozim. Chunki konseptlar zamonaviy tilshunoslikda faqat lingvistik birlik emas, balki ijtimoiy va madaniy idrokning ifoda vositasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Bobning uchinchi fasli **“Lingvomadaniy konseptlarning milliy-madaniy**

³³ Сафаров Ш.С. Когнитив лингвистика ва лингвомаданиятшунослик. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2014. – Б. 66-69.

³⁴ Якубов Ж.А. Концептнинг семантик кирралари. – “Хорижий тилларни ўқитишда замонавий ёндашувлар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2018 йил 11 апрель. 2 китоб. – Фарғона 2018. – Б. 227-228.

³⁵ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – С. 416.

³⁶ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2001. – С. 824.

³⁷ Стернин И.А. Когнитивная структура концепта. // Вестник ВГУ. – 2002. – №2. – С. 34–37.

belgilari tavsifi” deb nomlanadi. Milliy madaniyatga xos konseptlar, odatda, universal semantik maydonlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa-da, ular o‘z milliy madaniyatida shakllangan xos belgilar, ramzlar va qiymatlar tizimi orqali farqlanadi. E.S.Kubryakova ta’kidlaganidek, konseptlar madaniy xotira shaklida xizmat qiladi va til vositasida saqlanadi hamda uzatiladi³⁸.

Sh.S.Safarovning fikricha, “lingvomadaniy konseptlar milliy tafakkurning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir va ularni tahlil qilish orqali til egasining madaniy dunyoqarashini ochish mumkin”³⁹. Bizningcha, lingvomadaniy konseptlarni tahlil qilishda ularning leksik asosigagina emas, balki ularni shakllantirgan tarixiy, diniy, ijtimoiy va estetik omillarga ham e’tibor qaratish zarur.

Tadqiqotimizda kurash konseptini voqealantiruvchi lingvistik va nolingvistik birliklarning kurash maydonida tutgan o‘rni va maqomini asoslangan holda aniqladik.

Frazeologizmlar lingvomadaniy konseptlarning “barqaror va obrazli” ifoda shakllaridan biridir. Masalan, “*nonni yerga tashlamang*”, “*ko‘z tegmasin*”, “*kurashdan chekinmaslik*”, “*el ichra obro‘ qozonmoq*” kabi iboralar oddiy til vositasi bo‘lishdan tashqari, ularning orqasida xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini, axloqiy qoidalari, hatto diniy tasavvurlari yotadi⁴⁰.

“Maqollar va hikmatli so‘zlar” esa lingvomadaniy konseptlarni kodlovchi universal tildan ustun vositalardandir. Masalan, “*Non topgan yerda yur, non topolmagan yerda turma*”, “*Kurash qilgan yutadi*”, “*Ona duosi tog‘ni ag‘daradi*”, “*Ayol bor joyda baraka bor*”⁴¹ kabi maqollar orqali o‘zbek xalqining “hayotga, insoniy qadriyatlarga, mehnatga, Vatanga” bo‘lgan munosabati ochiladi.

Badiiy ifoda vositalari “metafora, personifikatsiya, metonimiya va simvolik obrazlar” konseptual mazmunni yanada kuchli ifodalash imkonini beradi. Masalan, o‘zbek she’riyatidagi “**ona**” **timsoli** ko‘pincha “**Vatan**” obraziga qiyoslanadi, “**qon**” esa “kurash va fidoyilik”ni bildiradi, “ko‘z yoshi” bo‘lsa, “fojia va poklanish timsoli” sifatida keladi⁴². Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “lingvomadaniy konseptlar” faqat tilning grammatik yoki semantik darajasida mavjud bo‘lmay, balki ularni “tashuvchi ramzlar, madaniy stereotiplar, obrazlar va jamoaviy emotsional tajriba” asosida faoliyat ko‘rsatadi.

V.N.Teliya fikricha, “til birliklari orqasida turgan madaniy konnotatsiyalar milliy tafakkurni shakllantiruvchi asosiy manbalardan biridir”⁴³.

Konseptlar “inson ongi va madaniy xotirasida qatlamli tarzda” saqlanadi. Yu.S.Stepanov ularning tuzilmasini uch asosiy darajaga bo‘ladi: faol xususiyat (dolzarb qatlam), passiv (tarixiy) qatlam va ichki shakl (etimologik asos)⁴⁴.

³⁸ Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / Е.С.Кубрякова. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 93-95.

³⁹ Сафаров Ш.С. Когнитив лингвистика ва лингвомаданиятшунослик. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2014. – Б. 66–69.

⁴⁰ Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 42–46.

⁴¹ Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 112-115.

⁴² Жо‘гаев Г‘. Poetik til va badiiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 120–123.

⁴³ Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 32–35.

⁴⁴ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2001. – С. 15–20.

Ushbu tadqiqot doirasida, til va madaniyatning o‘zaro munosabatlaridagi muammolari ham katta qiziqish uyg‘otdi. Til va madaniyat mosligini sinxron tarzda o‘rganish va tasvirlashga bag‘ishlanganligini sababi, bir tomondan lingvomadaniyatshunoslik tildagi inson madaniy omilga, ikkinchi tomondan insondagi til omiliga yo‘naltirilganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konsepti verbalizatorlarining semantik struktur jihatlari va madaniy tabiatining qiyosiy taxhlili”** deb nomlanadi.

Bobning birinchi fasli **“Ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konseptining nominativ zichligi”** deb nomlanib, unda chog‘ishtirilayotgan tillarda kurash konseptining nominativ birliklari yoritilgan.

Chog‘ishtirma tadqiqqa tortilgan ingliz va o‘zbek tillari materiallarining kognitiv tahlili natijasida “kurash” konseptining til sathlariga mansub 9 turdagi lisoniy verbalizatorlari ifodalanishi mumkinligi aniqlandi va ularning har biri misollar asosida dalillandi (Dissertatsiya 51-64-betlar):

1. So‘z leksema: *Tub ot; Tub sifat; Tub fel; Tub ravish.*

2. Sodda yasama so‘zlar: *Yasama ot; Yasama sifat; Yasama fel; Yasama ravish;*

3. Qo‘shma so‘zlar. *Qo‘shma ot; Qo‘shma sifat; Qo‘shma fel; Qo‘shma ravish;*

4. Qo‘shma yasama so‘zlar. *Qo‘shma yasama ot; Qo‘shma yasama sifat; Qo‘shma yasama fel; Qo‘shma yasama ravish;*

5. Frazologik birliklar.

6. So‘z brikmalari:

7. Paremiyalar(Maqol matallar).

8. Gaplar. *a) Sodda gaplar;b)qo‘shma gaplar;*


9. Matn.

Yuqoridagi vositalar nutqiy muloqat kontekstlarida, ya’ni mikro va makro-kommunikativ aktlarda, aniqrog‘i, adresant va adresat o‘rtasida kechadigan verbal, muayyan vaziyatlarda esa noverbal muloqotlar vaqtida o‘zining haqiqiy semantikasi va vazifalarini namoyon etadi va etnik sotsium a‘zolarining bir-birlarini tushunishiga, muloqot samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. (1-va 2-ilovaga qarang).

Yuqoridagi mezonlarga tayangan holda, turli funksional uslublarga xos matnlar, ingliz va o‘zbek tillari izohli, frazeologizmlar, turli lug‘atlar ustida o‘tkazilgan statistik tahlillar asosida kurash konsepti verbalizatorlarining nominativ maydonlarini tashkillovchi ifoda vositalarining maydon sathi uzra tutgan o‘rni, maqomi aniqlandi. Tahlilga tortilgan manba va matnlarning o‘rtacha hajmi 5000 sahifani tashkil etdi. Xulosalarga ko‘ra: ingliz tilidagi kurash konsepti verbalizatorlarining matndagi ulushi 1347 ta (100%); o‘zbek tilidagi evfemizm konsepti verbalizatorlarining matndagi ulushi esa 1407 ta (100%) ekanligi aniqlandi (2-1.1, 2-1.2-jadvallarga qarang).

Shuningdek, ingliz tilida kurash semantikasi verbalizatorlari o‘zbek tiliga nisbatan miqdor jihatidan ham, faolligiga ko‘ra ham kam ekanligi (1347/1407) aniqlandi. Kurash konsepti nominativ maydoni mazmun va ifoda planiga egadir. Lingvokognitiv, funksional-semantik tahlillarga tayangan holda kurash konsepti

verbalizatorlarining nominativ maydonini *dominanta*, *yadro* va *periferiya* qismlarga ajratdik. Bunda maydon *dominantasini* soddaga gaplar; *yadroni* soddaga gaplar, qo'shma gaplar, so'z birikmalari; yaqin *periferiyasini* esa leksemalar, paremiyalar, va frazeologik birliklar hamda uzoq *periferiyasini* matnlar va paralingvistik vositalar tashkil etadi. (2.1.3-jadval).



Bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konseptini verballashtiruvchi vositalar semantikasi va strukturasi”* deb nomlanib, unda chog‘ishtirilayotgan tillarda kurash konseptining nominative zichligi yoritilgan.

Ingliz tilida “fight” konsepti ot va fe‘l so‘z turkumlariga mansub bo‘lib, “polisemantik xususiyat”ga ega. A.S.Xornbining⁴⁵ “Oxford Advanced learners Dictionary of Current English” lug‘atida uning 7 ta ma‘nosi qayd etilgan. Bularning birma-bir tahlilini qilib chiqamiz.

1. a street/gang fight. (kurash) a fight with somebody/something (bosh ma‘no yoki arxisema): “*He got into a fight with a man in the bar*”⁴⁶.; (Majoziy) (*U barda bir erkak bilan janjallashib qoldi*).

2. sport, (sport) an occasion when people fight as a sport, especially in boxing: “*He is unbeaten in 34 fights*”.⁴⁷ (*U 34 ta jangda mag‘lub bo‘lmagan*).

3. argument:(tortishuv) an argument about something (Biror narsa haqida bahs/tortishuv/janjal.); “*Children will fight even over small things*”⁴⁸. (Bolalar mayda-chuyda narsalar uchun ham janjallashadi).

4. trying to get/do something (Nimadir olishga/nimadir qilishga harakat qilmoq) “*We fought for years before we got the recognition we deserved*”⁴⁹. (Biz munosib e‘tirofga erishishdan oldin yillar davomida kurashdik).

⁴⁵ Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. – Oxford: OUP, 2000. – P. 486.

⁴⁶ Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. – Oxford: OUP, 2000. – P. 486.

⁴⁷ Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. – Oxford University Press, 2000. – P. 486.

⁴⁸ Hornby A.S. Ko‘rsatilgan manba. – P. 487.

⁴⁹ Hornby A.S. Ko‘rsatilgan manba. – P. 487.

5. competition, (musobaqa sifatida); “Ferguson wants his team to make a fight of it”⁵⁰. Ushbu gapning tarjimasida esa “Fergyson o‘z jamoasidan kurashni davom ettirishni xohlaydi”.

6. battle/war (jang / urush) [countable] (sanaladigan) fight (for something) a battle; “They fought for control of the island”⁵¹. (Ular orol ustidan nazorat o‘rnatish uchun kurashishdi).

7. desire to fight. (kurashish istagi) “In spite of many defeats, they still had plenty of fight left out of them”⁵². (Ko‘plab mag‘lubiyatlarga qaramay, ularda hali ham kurashishga kuch bor edi.) “Losing their leader took all the fight out of the”⁵³. (Yetakchisini yo‘qotish esa ularning barcha kurashish ishtiyoqini yo‘qotdi.)

“Fight” konseptining lisoniy sinonimlari unga ma‘nodosh so‘zlar bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi: Battle – jang, katta miqyosdagi to‘qnashuv. Struggle – kurash, qiyin sharoitda harakat qilish. Conflict – nizolar, ziddiyatlar. Clash – to‘qnashuv, keskin kelishmovchilik. Duel – ikki kishi o‘rtasidagi jang.

“Fight” konseptining antonimlari unga qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi: Peace – tinchlik, jangsizlik. Truce – sulh, vaqtincha jangni to‘xtatish. Surrender – taslim bo‘lish, kurashni to‘xtatish. Ceasefire – jangni to‘xtatish. Reconciliation – yarashuv, kelishuv.

Fel so‘z turkumiga mansub polisemik leksema “fight”ning semik tarkibini ko‘rib chiqamiz. A.S.Xornbining “Oxford Advanced learners Dictionary of Current English” lug‘atida “fight”ning 8 ta ma‘nolari qayd etilgan: Bular:

1. in war/battle (urushda/jangda) [o‘timsiz, o‘timli] to take part in a war or battle against an enemy. (dushmanga qarshi urush yoki jangda qatnash.) 2. struggle/hit (kurash/urush) [o‘timli, o‘timsiz] to struggle physically with somebody: (jismonan kimdir bilan kurashish).

Tahlillar o‘zbek tilining izohli lug‘atida ot, fel so‘z turkumiga mansub “kurash” leksemasining semantik sturkturasi mavjud ekanligini ko‘rsatdi. **1. Harakat:** Kurash harakatni anglatadi, ya‘ni biror narsaga erishish uchun faoliyat ko‘rsatish. “Shoir shavq bilan she‘r yozishga, iste‘dodi bilan kurashmoqqa majbur edi.” (Cho‘lpon, Kecha va kunduz) “Polvon dushmani bilan oxirigacha kurashib, yengish uchun bor kuchini sarfladi”⁵⁴. **2. Ma‘nolari va qo‘llanish sohalari:** a) **jismoniy kurash, ijtimoiy kurash, shaxsiy kurash, tabiat bilan kurash**, “Navro‘z bayramida katta maydonda polvonlar belbog‘ bog‘lab kurashmoqqa tushdilar”⁵⁵.

Ingliz tilida ot **so‘z birikmali konstruksiyalar:** War of the worlds (jahon urushi), fight for freedom (ozodlik uchun kurash), Fight for justice (adolat uchun kurash)⁵⁶.

Sifat so‘z birikmali konstruksiyalar: a fighting man (Jangovar odam), Tactical fight (taktik kurash), Bloody fight (qonli kurash)⁵⁷.

⁵⁰ Hornby A.S. ko‘rsatilgan manba. – P. 487.

⁵¹ Hornby A.S. Ko‘rsatilgan manba. – P. 487.

⁵² Hornby A.S. ko‘rsatilgan manba. – P. 487.

⁵³ Hornby A.S. ko‘rsatilgan manba. – P. 487.

⁵⁴ Фулом Ф. Шум бола. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 54.

⁵⁵ Ойбек. Навоий: таржимаи ҳолий роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981. – Б. 156.

⁵⁶ Merriam-Webster, ko‘rsatilgan manba. – P. 183.

Fel so‘z birikmali konstruksiyalar: “to fight for peace (tinchlik uchun kurashmoq), to struggle for independence (mustaqillik uchun kurashmoq), fight to the death (o‘lim uchun kurashmoq)”⁵⁸.

Ravish so‘z birikmali konstruksiyalar: to fight viciously (shafqatsiz jang qilish), to fight desperately (umidsiz jang qilish), relentlessly fight (shafqatsiz jang)⁵⁹.

O‘zbek tilida otli so‘z birikmali konstruksiyalar: kurash maydoni, kurash uslubi, kurash libosi, kurash qoidalari, kurash federatsiyasi, kurash bo‘yicha musobaqa.

Ot konstruksiyali birikmani sifat bilan ifodalanishi: mahoratli kurashchi, qattiq belbog‘li kurash, chidamli kurashchi.

Fe‘l konstruksiyali so‘z brikmasi: kurashga tushmoq, kurash olib bormoq, kurashga hozirlik ko‘rmoq, kurashni boshlamoq, kurashni davom ettirmoq, kurashni yutmoq, kurashda mag‘lub bo‘lmoq”⁶⁰.

Ot konstruksiyali so‘z birikmaning ravish bilan ifodalanishi: jadal kurashmoq, mahorat bilan kurashmoq, shiddat bilan hujum qilmoq⁶¹.

Shuningdek, ingliz tilidagi “fight” leksemasining quyidagi “so‘z birikmalari va paremiyalari” o‘zbek tilida muvofiq so‘z birikmalarga ega emasligi aniqlandi; “Barcha ko‘priklar olovda yondirilsin” (**burn the bridge, to set all the bridges on fire**)⁶², “jangda it bor (have a dog in the fight)”⁶³. “Cho‘chqa bilan kurashmang” (Don’t wrestle with a pig)⁶⁴. “Tuxumni buzmasdan omlet tayyorlay olmasiz. (**You can’t make an omelet without breaking eggs**)⁶⁵ **mushuklar va itlar bilan jang qilish (fighting cats and dogs)**⁶⁶ o‘zbek tilida kurash leksemasining ayrim semalari ingliz tilida *fight* leksemasi semantik mundarijasiga yot ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bular jumlasiga, *kurash, g‘alayon, bo‘g‘ish, chamber, kip, to‘n, chopon, chala, g‘irrom, halol, dakki, yonbosh, tosh polvon, yog‘och polvon, kesak polvon, ayiq polvon, dakan polvon, to‘pponcha polvon, yotoq polvon* va *yiqligan kurashga to‘ymas; yiqliganni yer ko‘taradi; o‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil* kabi maqol va matallarni kiritishimiz mumkin.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda “fight” va “kurash” leksemalari integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar majmuidan iborat bo‘ladi. Buni quyidagi jadvalda tasvirlaymiz. **“Fight” va “kurash” konseptining integral va differensial semalari (Jadvalga qarang 2.2.1 84-bet).**

⁵⁷ Merriam-Webster, ko‘rsatilgan manba. – P. 183.

⁵⁸ Merriam-Webster, ko‘rsatilgan manba. – P. 183.

⁵⁹ Merriam-Webster’s Advanced Learner’s English Dictionary. Springfield, MA: Merriam-Webster, 2008. – P. 184.

⁶⁰ Абдуллаева М. Ўзбек тилида феъл бирикмаларининг семантик ва структуравий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 94-95.

⁶¹ Рўзиева З. Ўзбек тилида кучайтирувчи воситаларнинг семантик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2012. – Б. 106.

⁶² Spears R.A. McGraw-Hill’s Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs. – New York: McGraw-Hill, 2005. – P. 78.

⁶³ Ammer C. The American Heritage Dictionary of Idioms. – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2013. – P. 267.

⁶⁴ Ammer C. The American Heritage Dictionary of Idioms. – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2013. – P. 267.

⁶⁵ Spears R.A. McGraw-Hill’s Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs. – New York: McGraw-Hill, 2005. – P. 78.

⁶⁶ Spears R.A. McGraw-Hill’s Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs. – New York: McGraw-Hill, 2005. – P. 78.

Tahlillar orqali ingliz va o‘zbek tillarida tub so‘zli “fight / kurash” konsepti ifoda vositalarining tayanch modellarini aniqladik: **N, V, Adj**. Shu jihatdan fight (n), fight (v), fight (adj), kurash (ot), kurashmoq (fe’l), jang (ot)ni nutqning barcha uslublari uchun betaraf leksemalar sifatida baholash mumkin. Masalan, **He fought bravely in the war, but he was badly injured**⁶⁷. (U urushda mardlarcha jang qildi, lekin og‘ir jarohat oldi.) **They fought for freedom, and their struggle inspired many people**⁶⁸. (Ular erkinlik uchun jang qildilar va ularning kurashi ko‘plab odamlarni ilhomlantirdi.) Yasama tarkibli fight, kurash semantikasiga ega birliklar qatoriga so‘z yasovchi prefiksli va suffiksli leksemalarni ham kiritamiz. 1) suffiksli ot leksemalar: $N + suf = N$, $N+suf+suf=N$, $Adj+suf=N$, $Pref+V+suf=N$ fighter, fighting, combatant, defender, 2) suffiksli sifat leksemalari: $N+suf=Adj$: fightable, combative, aggressive, 3) suffiksli ravish leksemalar $Adj+suf=Adv$; $Adj+suf+suf=Adv$; $N+Suf=Adv$: aggressively, defensively, violently, fiercely, **Qo‘shma leksemalar** a) qo‘shma fe’l leksemalar: ($V+pref+N=CV$; $V+N=CV$; $V+pref=CV$) to go to war, wage war, Hold off, b) qo‘shma sifat leksemalar: ($N+PII = CAdj$; $Adv+PII=CAdj$; $N+Adj=CAdj$; $Adv+N=CAdj$; $N+V+suf=CAdj$) battle-hardened, war-torn, blood-soaked, c) qo‘shma ravish leksemalar: ($N + prep + N = CAdv$; $Adv+Adv=CAdv$) face-to-face, hand-to-hand, side by side.

O‘zbek tilida “kurash” semali **yasama tarkibli leksemalar**: Suffiksli va prefiksli yasama ot leksemalar: Kurashchi, Polvonlik, Jangchi, G‘oliblik, ($N + suf = N$, $N + suf + suf = N$); *Yasama ravish leksemalar*: jangovarona, polvonlarcha, g‘olibona, epchilona, ($N + suf = Adv$; $N+suf+suf=Adv$; $Adj+suf=Adv$). *Yasama fe’l leksemalar*: janglashmoq, g‘alabalashmoq, bellashmoq, himoyalanoq, ($N + suf = DV$). *Yasama sifat leksemalar*: kuchli, xavfli, baquvvat, shiddatli, sabrli ($N + suf = Adj$; $pref + N = Adj$).

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida “fight/kurash” semantikasiga ega monoleksema va polileksemalarning quyidagi 38 ta tayanch modellari aniqlandi.

Bobning uchinchi fasli “*Chog‘ishtirilayotgan tillarda “kurash” konseptiga oid sport terminlarining struktur-semantik jihatlari*” deb nomlanadi. Ushbu faslda “kurash” konseptini obyektivlashtiruvchi lisoniy verbalizatorlar semadan boshlab matngacha bo‘lgan turli til sathlariga mansub sodda va murakkab tarkibli taqsimlangan birliklar ekanligi, ular birgalikda yaxlit sistemani tashkillashi va o‘zaro munosabatda bo‘lishi avvalgi yuqorida dalillab berildi. Ingliz va o‘zbek tillarida sportning kurash turida ishlatiladigan chala, yonbosh, halol, tanbeh, bekor va g‘irrom konseptlarining izomorf jihatlari qiyosiy tahlil qilganimizda kurash turlarida ishlatiladigan ba’zi terminlar va konseptlar, masalan, “kurash”, “chala”, “yonbosh”, “halol”, “tanbeh”, “bekor”, va “g‘irrom”, ingliz va o‘zbek tillarida turlicha ifodalanishi va qabul qilinishi mumkin. Quyida ingliz va o‘zbek tillarida sport kurashida ishlatiladigan terminlarning qiyosiy tahlilini keltiramiz.

1. **Chala**⁶⁹ (**Adj**) so‘zi o‘zbek tilida kurashda biron bir harakatning to‘liq yoki sifatli bajarilmaganligini anglatadi. Masalan, chala usulda bajarilgan zarba. Half-hearted (ingliz): u so‘z biron bir ishni to‘liq yoki ishonchli bajarmaganligini

⁶⁷ https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/fight_1?q=fight [murojaat sanasi: 15.03.2025.]

⁶⁸ https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/fight_1?q=fight. [murojaat sanasi: 15.03.2025.]

⁶⁹ Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдди / А.Мадвалиев тахр. остида. – Тошкент, Ўзбекистон, 2020. Ч харфи. – Б. 448-449.

ifodalaydi, lekin kurash kontekstida “chala” soʻzi toʻliq ekvivalenti sifatida ishlatilmaydi. Misol uchun, He gave a half-hearted attempt. (U chala harakat qildi.)

2. **Yonbosh**⁷⁰ (CN) soʻzi oʻzbek tilida kurashda oʻrganilgan harakat yoki strategiyaning qoʻllanishi, shuningdek, imkoniyatlarni har ikki tomondan koʻrib chiqishni anglatadi. Masalan, Yonbosh usulini qoʻllash. Sideways soʻzi ingliz tilida harakat yoki qarorlarning oʻrganilishi yoki qoʻllanishi. Masalan, The sideways approach in the fight. (Jangda yon tomonlar yaqinlashadi.)

3. **Halol**⁷¹ soʻzi oʻzbek tilida adolatli, qoidalar asosida bajarilgan harakat yoki kurashni anglatadi. Masalan, Halol kurash. Fair soʻzi ingliz tilida adolatli va qoidalar asosida oʻtkazilgan kurashni ifodalaydi. Masalan, A fair fight. (Adolatli kurash.)

4. **“Tanbeh”**⁷² (N) soʻzi oʻzbek tilida yomon xatti-harakat yoki notoʻgʻri harakat uchun ogohlantirish yoki jazoni anglatadi. Masalan, Tanbeh olgan raqib. Warning soʻzi ingliz tilida yomon xatti-harakat uchun ogohlantirish yoki eʼtiroz. Masalan, He received a warning from the referee. (U hakamdan ogohlantirish oldi.)

Chogʻishtirilayotgan tillarda “kurash” semasiga oid sport terminlarini nutqda qoʻllanilishidagi faolligiga koʻra uch guruhga ajratdik va bular quyidagilarni tashkil etdi: 1) faol; 2) nofaol; 3) arxaik kurash terminlarini struktur semantic jihatlarini tahlil qilib oʻtdik. (3-ilovaga qarang)

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ingliz va oʻzbek tillarida “kurash” konsepti verbalizatorlarining pragmatik va lingvokulturologik tadqiqi”** deb nomlanadi va uning birinchi faslida **“Ingliz va oʻzbek tillarida “kurash” konsepti verbalizatorlarining pragmatik aspekti”** xususida soʻz yuritiladi. Ushbu faslda ingliz tilida “fight” konseptining qoʻllanishi yanada murakkabroq boʻlib, u koʻp hollarda jismoniy toʻqnashuv, qarama-qarshilik, yoki individual ichki kurashni anglatadi. Masalan: “*verbal fight*”⁷³ “*gang fight*”⁷⁴ yoki “*fight with illness*”⁷⁵ iboralari orqali bu konseptning salbiy konnotatsiyalari kuchayadi. Aksincha, oʻzbek tilidagi “kurash” konsepti esa koʻp hollarda *sharafli, mardlikka asoslangan, ijtimoiy foydali* faoliyat sifatida baholanadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilida “kurash” konsepti koʻp hollarda *milliy gʻurur, jasorat, adolat uchun harakat, iymonli qarshilik, hatto vatanparvarlik* ramzi sifatida ishlatiladi. Jumladan, ushbu konsept ijtimoiy ongda ijobiy, yuksak baholanuvchi konsept sifatida shakllangan. Masalan: *Meni oʻch bilan shafqat, gʻazab bilan marhamatning kurashi oʻz komiga tortgan edi.* (Gʻ.Gʻulom. Yodgor.) Bu hol esa konseptual metafora darajasida ham seziladi.

Jadval 3.1.1

⁷⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. остида. – Тошкент, Ўзбекистон, 2020. Ё ҳарфи. – Б. 37-38.

⁷¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. остида. – Тошкент, Ўзбекистон, 2020. Ҳ ҳарфи. – Б. 494.

⁷² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. остида. – Тошкент, Ўзбекистон, 2020. Т ҳарфи. – Б. 660.

⁷³ Merriam-Webster’s Advanced Learner’s English Dictionary. Springfield, MA: Merriam-Webster, 2008. – P. 613.

⁷⁴ Merriam-Webster’s Advanced Learner’s English Dictionary. Springfield, MA: Merriam-Webster, 2008. – P. 613.

⁷⁵ Merriam-Webster’s Advanced Learner’s English Dictionary. Springfield, MA: Merriam-Webster, 2008. – P. 613.

Ingliz tilida ifoda	O‘zbek tilida tarjima	Pragmatik tafovut
<i>fight against poverty</i>	kambag‘allikka qarshi kurash	Ijtimoiy motivatsiya har ikki tilda mavjud
<i>fight with depression</i>	tushkunlik bilan kurashish	O‘zbek tiliga nisbatan. kamroq ishlatiladi
<i>fight for rights</i>	huquqlar uchun kurash	Har ikki tilda ijobiy konnotatsiya bor
<i>fight broke out between two gangs</i>	ikki jinoiy to‘da o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi	O‘zbek tilida bu “urush”, “to‘qnashuv” deyiladi

Bobning ikkinchi fasli **“Ingliz va o‘zbek tillarida “kurash” konsepti verbalizatorlarining lingvokulturologik aspekti”** deb nomlanadi. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining tutashgan nuqtasida shakllangan integrativ ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u til vositalari orqali ifodalanadigan madaniy konseptlarni o‘rganadi. Mazkur fan tilni nafaqat aloqa (kommunikativ) vositasi sifatida, balki xalqning madaniyati, milliy tafakkuri, qadriyatlarini, mentalitetining timsoli sifatida tahlil qiladi. Lingvokulturologiya til birliklari orqali xalqning tarixiy, diniy, falsafiy, axloqiy qarashlari qanday aks etishini aniqlashga intiladi. Tilshunos S.Karimov bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: *Lingvokulturologiya – til va madaniyat, o‘zaro madaniy aloqa masalalarini ilmiy tadqiq etadi, chunki: “Til madaniyat bilan juda zich bog‘langan, u madaniyatga etib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi”*⁷⁶ **“kurash” konsepti** – lingvokulturologik metod yordamida tahlil qilinarkan ekan, bu tushunchaning tilda qanday semantik vositalar orqali ifodalanayotgani, u qanday konnotatsiyalarga ega ekan va turli tillarda qanday madaniy tafovutlarda namoyon bo‘layotgani aniqlanadi. Bunday yondashuv tilshunosga “xalqning madaniy arxetiplari, stereotiplari, assotsiatsiyaviy tarmoqlari” haqida chuqur ma’lumot beradi va “milliy tafakkur modeli”ni yaratish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatyaptiki, “kurash” konsepti ijtimoiy ongda milliy madaniyat o‘zligining ajralmas qismi sifatida yashaydi.

Ingliz tilida quyidagi iboralar “kurash” konseptining turli konnotatsiyalarini anglatadi: Masalan, *“No pain, no gain”*⁷⁷ maqoli ingliz tilida “struggle” konsepti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, inson hayotida erishiladigan har qanday “yutuq, og‘riq, mashaqqat, kuch, sabr” talab qilishini anglatadi.

O‘zbek tilida xalq matallaridan bahodir yigitlarga nisbatan eng ko‘p qo‘llanadigan *“Er yurtini deb jonini tikkan”*⁷⁸ naqlini ham, lingvokulturologik tadqiqini ham qilib chiqsak, ushbu naql xalqimiz tilida xalq qahramonlari, tarixiy shaxslar, vatanparvar insonlar xotirasida ko‘p ishlatiladi. “Kurash” konsepti odatda, bevosita aytilmagan bo‘lsa-da, “jon tikish”, ya’ni o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yish, o‘limni ko‘z oldiga keltirib harakat qilish, eng yuksak darajadagi kurashning timsolidir.

Bobning uchinchi fasli **““Kurash” semantikali til birliklarini tarjima tilida qayta yaratish usullari”** deb nomlanadi.

⁷⁶ Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi fanidan ma’ruzalar matni. – Samarqand. 2012. – B. 59.

⁷⁷ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. London: The university of Chicago press, 2003. – P. 63.

⁷⁸ Маҳмудов Н. *Ўзбек халқ мақолларининг лексик-семантик таҳлили*. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 119-121.

Ushbu faslda biz ilgari tahlil qilingan kurash semantikali barcha til birliklari asosida “kurash” konseptining tarjima tilida qayta yaratish muammolariga yuzlanmoqchimiz. Har bir iboraning semantik, stilistik, madaniy va konnotativ jihatlari tahlil qilinar ekan, ular ingliz tilida qanday usullar bilan qayta berilishi mumkinligi tarjima usullari orqali ham muhokama qilinadi.

1. So‘zma-so‘z tarjima usulida. 2. Erkin tarjima usulida. 3. Ekvivalent maqollar orqali tarjima usullarida. 4. Tavsiflovchi tarjima usullarida. 5. Kontekstual moslashtirish tarjima usullarida. 6. Ma’nodosh iboralarni izlab topish usuli orqali

So‘zma-so‘z tarjima, odatda, muayyan til birligining boshqa tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya’ni grammatik, semantik jihatdan eng yaqin muqobil shakl bilan berilishi usulidir. “Kurash” leksemasining ingliz tilidagi eng yaqin ekvivalentlari “fight”, “struggle”, “battle”, “combat” bo‘lishi mumkin. Masalan, “Ozodlik uchun kurash” iborasi “Struggle for freedom” tarzida hech qanday semantik buzilishlarsiz tarjima qilinadi. “Ko‘ngil kurashi” iborasini “**heart’s fight**” deb so‘zma-so‘z tarjima qilsak, ingliz tilida u tabiiy eshitilmaydi.

Erkin tarjima usuliga kelsak, bu so‘zma-so‘zlikdan chekinib, asl mazmuni, konnotatsiyani, madaniy kontekstni saqlagan holda boshqa til vositalari bilan ifodalash usulidir. “Yotib qolgan dushmanga qilich o‘tmaydi” (folklordan) maqolini “Do not strike a man when he is down” tarzida tarjima qilish aynan erkin tarjimadir.

Ekvivalent maqollar orqali tarjima qilishda, har ikki til madaniyatida mavjud bo‘lgan umumiy tajribalarni aks ettiruvchi maqollar asos qilib olinadi. “Kurashsang, g‘olib bo‘lasan” (Folklordan) maqoli “Where there's a will, there's a way” (Laurie Maguire, Where there's a will, there's a way.) tarzida ingliz tiliga tarjima qilinadi. Ba’zi hollarda o‘zbek tilida mavjud til birliklarining ingliz tilida aniq ekvivalenti bo‘lmaydi. Bunday holatlarda tarjimon **tavsiflovchi tarjimadan** foydalanadi. “Ko‘ngil kurashi” (folklordan) iborasi “The internal battle of the soul”⁷⁹ yoki “Emotional struggle within the heart”⁸⁰ tarzida ifodalanadi.

Kontekstual moslashtirish tarjima jarayonida matnni maqsadli auditoriyaga moslashtirishdir. “Dunyo deb jonini kuydirdi” iborasini “He sacrificed everything in pursuit of worldly success”⁸¹ tarzida tarjima qilish adaptatsiyaning yaqqol namunasi. Bu usulda asl ibora teskari tarjima qilinganda, aslga yaqin chiqmasligi mumkin, ammo asosiy g‘oya “fidoyilik, dunyoviy maqsadlar uchun kurashish” to‘liq ifodalanadi.

Kurash konseptiga doir yana bir “Bu maydon kurash maydoni, shafqatsiz maydon”⁸² iborasini ingliz tiliga “This field is a battlefield, a cruel field”⁸³ tarzida

⁷⁹ John M. Newman. Quest for the Kingdom. The Secret Teachings of Jesus in the Light of Yogic Mysticism. All rights reserved. 2011. – P. 228.

⁸⁰ Rios R.A. They Called It Puppy Love: Coming of age story. 2021. – P. 9.

⁸¹ Amani Elmahi Elkhalfi Mohamed. Cultural challenges in translating Tayeb Salih’s novel Season of Migration to the North (1969) from Arabic into English: A comparative and analytical study with a focus on metaphors and similes. University of Pretoria. 2020. – P. 107.

⁸² Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 211.

⁸³ Davies P. Translating Proverbs and Sayings: Cross-Cultural Challenges. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – P. 257.

tarjima qilish metaforani saqlagan holda ifodalanadi. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, bu yondashuv turli xalqlarning tafakkuridagi umumiyliklarni topish orqali tarjima samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Mavzuga taalluqli konsepsiyalar va nazariy manbalarni o‘rganish, qiyoslash va tahlil etish asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. “Kurash” konsepti kognitiv tilshunoslikda inson tafakkurining faol natijasi sifatida ko‘riladi. Bu konsept inson tajribasi, anglash, tasavvur va madaniy qadriyatlar asosida shakllanadi. Tushunchalar ongda konseptual xarita sifatida tuziladi va “kurash” bu xaritada “qarshilik”, “harakat”, “maqsad” va “g‘alaba” sememalari bilan uyg‘un holda ishlaydi. O‘zbek va ingliz tillarida “kurash” konsepti kognitiv strukturalarda turlicha kodlangan bo‘lib, ularning talqini xalq tafakkurini aks ettiradi. Bu talqin g‘arbda individuallik, O‘zbekistonda esa ijtimoiy-axloqiy pozitsiyaga tayanadi.

2. Lingvomadaniy konseptlar xalq madaniyatining genetik kodini tashkil etadi. “Kurash” konsepti o‘zbek madaniyatida jasorat, vatanparvarlik va g‘urur bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz madaniyatida u individual huquq, sabr va ijtimoiy barqarorlik timsolidir. Har ikki til konseptual sistemalarida “kurash” madaniy stereotip, axloqiy baho va tarixiy tajriba asosida shakllanadi. Bu, ayniqsa, maqollar, metaforalar va rasmiy nutq birliklarida yaqqol ko‘rinadi.

3. Kognitiv-lingvistik yondashuvga ko‘ra, “kurash” konsepti faqat lug‘aviy birlik emas, balki ma’naviy-ma’rifiy zaminli kompleks semantik maydon sifatida tahlil qilinadi. Unga bog‘liq verbal birliklar inson faoliyati, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy rolini namoyon qiladi. Shu bois, konseptual tahlilda “kurash” tushunchasi paradigmatic va sintagmatic munosabatlar tarmog‘ida turgan markaziy birliklardan biri hisoblanadi.

4. Tahlillar natijasida “kurash” konsepti ingliz va o‘zbek tillarida 9 turdagi verbalizatorlar orqali ifodalangan: leksik birlik, qo‘shma so‘z, frazeologizm, maqol, gap, qo‘shma gap, kontekstual birikma va matn. O‘zbek tilida “kurash” o‘ziga xos semantik faollik bilan ajralib turadi, ayniqsa, ot va sifat so‘z turkumidagi birliklar yuqori faollikka ega. Ingliz tilida esa, polisemantik fe’llar ko‘proq semantik funksiyani bajaradi.

5. “Kurash” konsepti sport terminologiyasi darajasida ham muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek tilida terminlar asosan aglutinativ (yopishuvchi) model asosida, “kurashchi”, “kurash libosi” tarzida quriladi, ingliz tilida esa sintaktik modelga asoslangan: “wrestling mat”, “wrestling category”. Bu ikki til struktur jihatdan farqlanuvchi, ammo konseptual yadrosi bir xil bo‘lgan birliklar orqali kurashni ifodalaydi.

6. Kurash terminlari faol, nofaol va arxaik shakllarda ifodalangan. O‘zbek tilida “chala”, “halol”, “g‘irrom” kabi terminlar baholovchi konnotatsiyaga ega bo‘lsa, ingliz tilida “disqualified”, “warning”, “fair play” kabi birliklar neytral yoki axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Bu holat har ikki tilda “kurash” konseptining

axloqiy-me'yoriy tizimda qanday semantik yuklama bilan ifodalanishini ko'rsatadi.

7. Pragmatik nuqtai nazardan, "kurash" konsepti har bir madaniyatda turlicha qiymat kasb etadi. O'zbek tilida u jamiyat tomonidan ijobiy baholanuvchi axloqiy faoliyat sifatida qo'llanilsa, ingliz tilida u ba'zida neytral, ba'zida kinoyaviy yoki motivatsion vosita sifatida ishlatiladi. "No pain, no gain" yoki "He never gave up on his dream" iboralari kurashning ichki kuch va qat'iyat bilan bog'liqligini anglatsa, o'zbek tilida bu fikr "Jasorat qilgan yengadi" kabi iboralarda aks etadi.

8. Lingvokulturologik tahlil shuni ko'rsatadiki, "kurash" konsepti ingliz tilida ko'proq shaxsiy muvaffaqiyat, ruhiy to'qnashuv va ijtimoiy adolat uchun harakatni bildiradi. O'zbek tilida esa bu tushuncha odatda jamoaviy g'oya, axloqiy prinsip, milliy g'urur va tarixiy ong bilan bog'lanadi. Til birligi orqasida yashiringan madaniy kod, ushbu konseptni milliy mentalitetning asosiy yadro elementlaridan biriga aylantiradi.

9. "Kurash" konseptini tarjima qilishda semantik muvofiqlikdan tashqari, madaniy adaptatsiya zarur. Masalan, "kurashda mardon siylanar" maqolasi ingliz tiliga "In struggle, the brave are honored" tarzida tarjima qilinsa ham, uning madaniy ma'nosini to'liq yetkazish uchun izohli sharh talab etiladi. Tarjimada ekvivalent, adaptiv va deskriptiv usullar orqali ushbu konsept madaniy konnotatsiyasini saqlagan holda ifodalanishi mumkin.

10. "Kurash" konsepti ingliz va o'zbek madaniyatlarida turli tarixiy, ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllangan. G'arb madaniyatida bu atama ko'proq shaxsiy o'zgarish, ijtimoiy adolat, qat'iyat va murosasizlikka tayanadi. O'zbek madaniyatida esa u or-nomus, g'urur, jasorat va jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan axloqiy fazilatlar bilan boyitilgan. Ushbu konsept til orqali milliy ong, ma'naviy qadriyatlar va madaniy arxetiplarni mujassam etuvchi universal semantik birlik sifatida qaralishi mumkin.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02
AWARDING ACADEMIC DEGREES AT
ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES**

ANDIJAN STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

MATQULOV XOSILBEK MAVLONOVICH

**LINGUOCULTURAL STUDY OF THE CONCEPT “KURASH” (FIGHT)
IN ENGLISH AND UZBEK**

**10.00.06 – Comparative Literature, Contrastive Linguistics
and Translation Studies**

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission under the Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2022.4.PhD/Fil2957.

The dissertation has been conducted at Andijan state institute of foreign languages.

The abstract of the dissertation has been uploaded to the website of Andijan state institute of foreign languages (www.adchti.uz) and “ZiyoNet” informational and educational portal (www.ziynet.uz) in three (Uzbek, English, Russian (resume)) languages.

Scientific advisor:

Abduvaliev Mahamatjon Arabovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Saidkhonov Mamurjon Muhammedovich
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

Tojiboev Ithomjon Usmonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Leading organization:

Kokand State University

The dissertation defence will take place at the meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 on awarding the academic degree at the Andijan State Institute of Foreign Languages "_____" _____ 2026 at _____. (Address: 100100, Andijan city, Boburshoh Street, 5. Tel.: 0(374) 223 42 76; fax: 0(374) 223 42 76; e-mail: info@asifl.uz)

The dissertation can be found in the Information Resource Center of the Andijan State Institute of Foreign Languages (registered under the number _____). (Address: 100100, Andijan city, Boburshoh Street, 5. Tel.: 0(374) 223 42 76; fax: 0(374) 223 42 76).

The abstract of the dissertation is distributed on “_____” _____ 2026.
(Protocol at the registered № _____ on “_____” _____ 2026).

D.A.Rustamov

Chairman of the Scientific Council for Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

A.Dj.Ataboev

Secretary of the Scientific Council for Awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor

S.O.Solijonov

Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council awarding scientific degrees, Candidate of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD))

Actuality and necessity of the dissertation topic. In global linguistics, the number of studies aimed at exploring the relationship between the world – human – and language particularly the linguistic objectification of the conceptual worldview of the internal and external world through linguistic and descriptive means, as well as the conceptual-semantic, cognitive-linguistic, cultural-linguistic, and pragmatic-linguistic features of language and speech units from an interdisciplinary and comparative perspective—is steadily increasing. Research conducted within the framework of the anthropocentric paradigm plays a crucial role in examining the complex relationship between language and thought, the interrelation between the conceptual system of the world and the language system, the human role in perceiving and conceptualizing the world, encoding and transmitting knowledge, and the national-cultural and communicative-pragmatic aspects of the means that verbalize concepts.

The concept of “kurash,” which embodies both universal and national characteristics and is represented within the conceptspheres of various peoples and nations, reflects the linguistic manifestation of national mentality, cultural values, and social experience in both the Uzbek and English languages. However, the verbalization of this concept in English and Uzbek, the cultural dimensions of the linguistic units used to express it, the systematic relationships between the core and peripheral elements that form its conceptual field, as well as its structural-semantic, functional-stylistic, cultural-linguistic, and pragmatic features—and the challenges of rendering these features in translation—have not yet been comprehensively examined on a comparative and scientifically grounded basis.

At the current stage of reforms in the development of our country, the ultimate goal is to advance science, education, and upbringing based on individual moral, national-cultural, and universal human values. This is clearly reflected in the “Uzbekistan – 2030” Strategy, where ensuring spiritual development and elevating the sphere of culture to a new level are defined as key strategic priorities of the reform agenda¹. Indeed, in today’s era of globalization, it is natural that every nation and independent state gives priority to safeguarding and promoting its national interests—particularly by preserving and developing its culture, ancestral values, and native language.”². In this context, Uzbek linguistics has also opened the way for extensive scientific research at the intersection of human cognition and language studies – from the perspective of cognitive linguistics.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5847 dated October 8, 2019, “On the Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”³, Resolution No. PD-1875 of December 10, 2012, “On Measures to Further Improve the System

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. 11.09.2023-yil. PF-158-son. <https://lex.uz/docs/-6600413>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. <http://lex.uz/docs/4561730>.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

of Foreign Language Learning”⁴, The Resolution No. PD-2909 dated April 20, 2017, “On Measures to Further Develop the Higher Education System”⁵, the Resolution No. PD-3775 dated June 5, 2018, “On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Education Institutions and to Ensure Their Active Participation in the Comprehensive Reforms Being Implemented in the Country”⁶, the Decree No. PD-4881 dated November 4, 2020, of the President of the Republic of Uzbekistan, “On Measures to Develop Kurash as a National Sport and Further Enhance Its International Prestige”⁷, and the Decree No. PD-3306 dated October 2, 2017, of the President of the Republic of Uzbekistan, “On Measures to Further Develop Kurash as a National Sport”⁸, as well as other normative legal documents, further emphasize the relevance and necessity of the topic of this dissertation.

Correspondence of the research to the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was carried out within the framework of the priority direction of the development of Science and technology of the Republic “social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a Democratic state, development of an innovative economy”.

The degree of study of the problem. In linguistics, the problem of systematic interpretation of the conceptospheres of different nationalities and elates has become the central object of many scientific studies. Foreign linguistic scientists-S.G.Vorkachyov, Z.D.Popova, A.P.Babushkin, I.A.Sternin, G.G.Slishkin, D.S.Likhachyov, N.M.Kravsova, Ye.A.Menzairova, N.N.Boldirev, V.I.Theoretical foundations of concepts and national-cultural differences in different languages have been studied on a scientific basis by researchers such as Karasik. Their work served to deeper understand the interconnection between language and thought, the linguistic and cultural reality of concepts⁹.

In world linguistics, the emergence of modern cognitive linguistics is

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son Qarori.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyunda “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4881-son qarori.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktyabrda “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-son Qarori. .

⁹ Воркачев С.Г. Концепт “счастья” в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа: Монография. – Краснодар: Изд-во Кубан. гос. техн. ун-та, 2002. – С. 142; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж: Воронеж. ун-т, 2000. – С. 30; Кравцова Н.М. Концепт «человек телесный»: когнитивное моделирование и переносы (на материале сопоставительного анализа древнерусского и древнеанглийского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2008. – С. 30; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/cўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – С. 28; Болдырев Н.Н. Концептуальная основа языка // Когнитивные исследования языка. Вып. IV. Концептуализация мира в языке: коллектив. моногр. – М.: Ин-т языкознания РАН; – Тамбов: ТГУ им. Г.Р.Державина, 2009. – С. 460; Карасик В.И. Определение и типология концептов // Этнокультурная концептология: Сб. науч. тр. / Калм. гос. ун-т. – Вып. 1. – Элиста: Изд-во Калм. ун-та, 2006. – С. 332.

associated with the scientific works of American scholars such as J. Miller, J. Bruner, J. Lakoff, R. Langacker, R. Jackendoff¹⁰, and others.

In Russian linguistics, too, research on conceptual analysis has been carried out in a wide range. In Particular, S.I. The semantic properties of the concepts “eye”, “heart”, “head” were analyzed by Magomedova¹¹ based on the materials of avar and Arabic languages.

Theoretical, private and practical research methodology of cognitive approach and linguoconceptology in Uzbek linguistics. R. Galiyeva, A. A. Abduazizov, D. U. Ashurova, M. D. Djusupov, Sh. Safarov, O. Q. Yusupov, G. Khoshimov, J. Yakubov, M. A. Abduvaliyev, G. Ergasheva, Z. A. Kasimova, D. Developed by such scientists as Bahronova. They have contributed significantly to the development of the methodology of conceptual analysis and the disclosure of the linguistic expression of concepts in national thought¹². Also, M. Umarxodjayev¹³, A. Mamatov¹⁴, Z. Xolmanova¹⁵, X. Qodirova¹⁶, D. Rustamova¹⁷, N. G‘aybullayeva¹⁸, Sh. Gulyamova¹⁹, Sh. Shamsiyeva²⁰ hamda N. Jo‘rayevas²¹ research is admirable.

In Uzbek literature, in particular, A. Kodiri²², A. Chulpan²³, U. Hoshimov²⁴,

¹⁰ Benjamin D. Gestural sense art, neuroscience and linguistic embodiment // Western Sydney University Thesis Collection, 2009. – P. 65-68.

¹¹ Магомедова С.И. Соматизмы «глаз», «сердце», «голова» в объективации картины мира (на материале аварского и арабского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2009. – Б. 24.

¹² Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент: Шарк, 2015. – Б. 176; Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста//Хорижий филология. – №3. – Самарканд, 2011. – Б. 26-33; Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: ВГУ, 1996. – С. 38; Бахронова Д.К. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера // Хорижий филология, 2019. – №3. – Б. 62-68; Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 160; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 25-46; Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 283; Юсупов Ў.К. Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлагиладиган айрим истилохлар. Филология масалалари. – Тошкент, 2011; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике. // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарканд, 2010. – С. 74-78; Якубов Ж.А. Концептнинг семантик кирралари. – “Хорижий тилларни ўқитишда замонавий ёндашувлар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2018 йил 11 апрель. 2 китоб. – Фарғона, 2018. – Б. 227-228. Abduvaliyev M.A. To‘siqsizlik konsepti nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz, o‘zbek va boshqa tillar misolida): Filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Andijon, 2023. – 253 b.

¹³ Умарходжаев М.И. Основы фразеогрфии: Автореф. ... д-ра филол. наук. – Москва, 1981.

¹⁴ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 56.

¹⁵ Холманова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 22 б.

¹⁶ Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 23.

¹⁷ Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва соціопрагматик аспекти: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD). ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б. 50.

¹⁸ Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): Филол. фан. б-ча фалс. д-ри дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – Б. 62.

¹⁹ Гулямова Ш.Қ. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б-ча фалс. д-и (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. – Б. 95-143.

²⁰ Shamsiyeva Sh. Xitoy va o‘zbek tillaridagi maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi: filol. fan. b-cha fals. d-ri diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 53.

²¹ Jo‘rayeva N. Fransuz va o‘zbek tillari evfemizm va disfemizmlarining lingvopragmatik xususiyatlari: filol. fan. b-cha fals. d-ri diss. avtoref. – Andijon, 2023. – B. 56.

²² Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1983. – Б. 217.

²³ Чўлпон А. Кеча ва кундуз: роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1990. – Б. 134.

²⁴ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 174.

Oybek²⁵, S.Ahmad²⁶, Mirmuhsin²⁷ the images of “kurash” were harmonized with “ideas of national pride, patriotism and liberation.” In our study, a structural-semantic, linguocultural and pragmatic study of verbalizers of the concept of “kurash” was carried out in English and Uzbek, in contrast to the work done in this direction.

In English and Uzbek, lexical-semantic features are revealed regarding the verbalization of the concept of “kurash”; the nomenclature of linguistic means representing the concept of “kurash”, their field structure and systematic interaction are studied in depth in the comparative plan; Linguomadanic and linguopragmatic features of the concept of “kurash” in English and Uzbek are analyzed contextually on the basis of artistic texts and dictionary sources, and cultural values, social stereotypes and communicative intonations in folk thought are widely covered.

Relationship of the research with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. The dissertation was completed in accordance with the research plan of the Andijan State Institute of Foreign Languages within the framework of the topic “A sustainable development model of foreign language education based on the integration of language and culture: linguistic, philological, linguodidactic and digital approaches.”

The aim of the research of the study is to determine the linguocognitive, linguomadanic and linguopragmatic properties of units that make the concept of “kurash” in English and Uzbek.

Tasks of the research:

to compare and analyse theoretical views on linguistic cognitive analysis, concept and related concepts in linguistics;

determination of the conceptual area of the linguistic means that represent the concept of “kurash” in English and Uzbek, marking its core and peripheral parts;

revealing the linguistic features of the units formed on the basis of the concept of “kurash” in English and Uzbek, determining their reflection in national thought;

